



**BIOFIKTIV ROMANDA TARIXIY HAQIQAT VA FANTASTIK
TASAVVUR**

Ma'suma Obidjonova

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, PhD*

Annotatsiya

Mazkur maqolada “Mening Otim Qirmizi” romani **biofiktiv-fantastik matn** sifatida tahlil qilinadi. “Biofiktiv-fantastik” atamasi shartli muallifiy ishlanma bo‘lib, tarixiy-biografik asosga ega bo‘lgan, biroq muallif tomonidan fantastik va metafizik ifoda vositalari bilan g‘oyaviy-estetik jihatdan boyitilgan badiiy modelni anglatadi. Maqola davomida ushbu model ichida fantastik elementlarning estetik va semantik vazifalari, ular orqali muallifning asosiy konseptual g‘oyalari qanday yetkazilgani va o‘quvchi bilan matn o‘rtasida shakllanuvchi interpretativ muloqot mexanizmi tahlil qilinadi.

***Kalit so‘zlar:** biofiktiv asar, tarixiy roman, fantastik element, estetik tahlil, tarixiy-biografik model, metafizik ifoda.*

Abstract

This article analyzes My Name is Red as a biofictive-fantastic text. The term “biofictive-fantastic” is used here as a provisional authorial construct to denote a literary model grounded in historical-biographical material yet enriched through fantastic and metaphysical modes of expression that serve aesthetic and conceptual purposes. The study explores the aesthetic and semantic functions of fantastic elements within this model, examining how they convey the author's core conceptual ideas and facilitate an interpretive dialogue between the reader and the text.

***Keywords:** biofictive narrative, fantastic elements, aesthetic analysis, historical-biographical model, representation and subjectivity, metaphysical expression.*

So‘nggi yillarda adabiyotshunoslikda tarixiy haqiqatni badiiy rekonstruksiya qilishga asoslangan **biofiktiv asarlarga** nisbatan ilmiy qiziqish ortib bormoqda. Ular ayniqsa **poststrukturaviy va postmodern nazariyalar** kontekstida keng tahlil





qilinmoqda. Bu turdagi asarlar tarixiy faktlarga tayanadi, biroq ularni voqelikni tiklash vositasi sifatida emas, balki muallifning estetik va falsafiy konsepsiyasini ifodalash imkoniyati sifatida talqin qiladi. Ilmiy adabiyotlarda **biofiktiv roman** bilan **tarixiy roman** o'rtasidagi farqlar aniq ajratilganiga qaramay, hanuzgacha bu ikki janr chalkashtiriladi. Agar tarixiy roman tarixiy voqealarni voqelik sadoqatiga asoslangan holda yoritishga intilsa¹, biofiktiv asar tarixiy shaxs yoki davrga oid mavjud faktlarni estetik jihatdan qayta ko'rib chiqadi, ularning ichki dunyosini, muqarrarlikdan holi ehtimollarini, madaniy yoki ijtimoiy ziddiyatlarini tasavvuriy asosda tiklaydi. Bu asarlarda ko'pincha tarixiy manbalarda mavjud bo'lmagan tafsilotlar yozuvchining intellektual-ijodiy ixtirosi orqali to'ldiriladi². Biofiktiv asarlar tarkibida kuzatiladigan fantastik, metafizik yoki spekuliyativ elementlar ularni an'anaviy tarixiy romanlar doirasidan chiqaradi va fantastika bilan tutashtiradi. Attebery ta'kidlaganidek, bunday matnlar real voqelikni emas, balki uning ehtimoliy variantlarini, alternativ tarixiy ong modellarini yaratishga xizmat qiladi. Shu bois, biofiktiv asarlarda fantastik unsurlar faqat estetik bezak emas, balki muallifning zamonaviy ong, xotira va shaxsiyat masalalarini o'rganishdagi metodologik vositasidir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, **Orxon Pamukning "Mening Otim Qirmizi" (1998)** romani o'zining estetik qurilishi, tarixiy fon ustidagi nazariy qatlamlari va fantastik syujet texnikasi bilan biofiktiv asarlarning yuqorida tilga olingan talqin doirasiga to'liq mos keladi. Muallif asarda XVI asr Usmoniylar imperiyasining miniatyura san'ati bilan bog'liq tarixiy-estetik zaminni yaratgan holda, uni fantastik va metafizik komponentlar bilan kengaytiradi. Jumladan, o'lik insonning ovozi, jonsiz buyumlarning tilga kirishi, subyektiv tafakkurga ega rasm obrazlari kabi elementlar voqelik chegaralarini buzadi va badiiy haqiqatning ko'p qatlamli ifodasiga xizmat qiladi.

O.Pamuk romanining o'ziga xos uslubi hayot va o'lim oralig'idagi chegaralarni estetik jihatdan muallaq holda tasvirlashidir. Asarning birinchi bobidayoq o'quvchi o'zini o'ldirilgan bir insonning tilidan hikoya qilinayotgan voqealar markazida topadi. Bu uslubiy tanlov, albatta, realizm chegaralaridan chekinishni bildiradi va roman syujetini **fantastikaga yaqinlashtiradi**. "Ben ölüyüm ama tam anlamıyla değil"³. Romanni ochuvchi ushbu jumla o'quvchini realistik voqealardan biroz uzoqlashtiradi. Asarda o'lim faqat biologik holat emas, balki **ongning o'ziga xos shakli**, vaqt va makon chegaralaridan ozod bo'lgan **holat** sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv

¹ Groot J. The historical novel. Routledge, 2010. – P.83.

² Lee H. Biography: A very short introduction. Oxford University Press, 2014. – P.35.

³ Pamuk O. Benim Adim Kırmızı. İletişim Yayınları, 1998. – S.11.





biofektivlik doirasida tarix va tafakkurni qiyoslashdir. Bu fantastik holat muallifga tarixiy shaxsni tirik holda emas, balki **timsol sifatida**, o‘z fikrini o‘limdan so‘ng ham davom ettiruvchi ideallashtirilgan obraz sifatida tasvirlash imkonini beradi. Bu orqali voqealarning soddaroq tarixiy ketma-ketligi emas, balki insoniy idrok va haqiqat o‘rtasidagi falsafiy tafovut ochiladi. Roman davomida bir nechta boblar jonsiz obyektlar **naqsh, rasm, hatto bo‘yoqlar** nomidan hikoya qilinadi. Bu yondashuv o‘z tabiatiga ko‘ra **fantastik va alegorikdir**, lekin ayni vaqtda u biofektiv asar ichida muhim estetik va g‘oyaviy vazifani ham bajaradi. Masalan, bo‘yoq tilidan berilgan matnga diqqat qaratamiz:

“Ben kırmızıyım... Herkes beni sever ama benim en çok sevdiğim, beni bir başka renkle karıştıranlardır”⁴.

Bu yerda “qirmizi” rangi antropomorf shaklga ega bo‘lib, o‘z **sezgisi, istagi va badiiy afzalliklari** bor subyektga aylanadi. Bu uslubiy transformatsiya, ya’ni **tasviriy san’at obyektining jonlantirilishi** bir qarashda fantastik bo‘lishiga qaramay aslida roman ichidagi estetik bahslarning mohiyatini ochib beradi. Qirmizi rangning tilga kirishi, bir tomondan, matnga surreal ohang kiritadi, ikkinchi tomondan esa muallifning san’at va haqiqat o‘rtasidagi bahsga o‘z pozitsiyasini badiiy yo‘l bilan bildirishiga xizmat qiladi. Shuningdek, bu yondashuv o‘quvchiga romanni tarixiylik prizmasidan emas, balki estetik-falsafiy jihatdan tushunish lozimligini uqtiradi. Roman davomida muhim falsafiy masalalardan biri **“ko‘rish” va “ko‘rinish”** o‘rtasidagi farqdir. Miniaturachilar uchun ko‘rish nafaqat estetik amaliyot, balki **shuuriy va e’tiqodiy** masala hamdir. G‘arb rassomligi ta’sirida shakllanayotgan “perspektiva” tushunchasi bilan an’anaviy islomiy estetika o‘rtasidagi to‘qnashuv roman davomida ko‘p marta ochiq va yashirin shakllarda muhokama qilinadi: “Bir ressam için Tanrı’nın gördüğü gibi görmek, en yüksek gayedir. Ama biz öyle resim yapmayız”⁵.

Bu fikr, bir tomondan, islom an’anaviy san’atidagi **ko‘zdan qochish**, tasviriy realizmdan voz kechish falsafasini anglatadi. Boshqa tomondan esa, bu tanlov “haqiqat”ni qanday ko‘rish, kimning nigohi asosiy degan masalani ochib beradi. Biofektiv roman doirasida bu estetik qarama-qarshilik nafaqat tarixiy estetik bahs, balki inson o‘zligining shakllanishida madaniy idrokning o‘rni haqida ham muhim nazariy

⁴ Pamuk O. Benim Adım Kırmızı. İletişim Yayınları, 1998. – S.155.

⁵ Pamuk O. Benim Adım Kırmızı. İletişim Yayınları, 1998. – S.219.





savol qo‘yadi. Ayniqsa, fantastik vositalar, masalan, rasmlar o‘z “fikr”ini bildirishga kirishgan holatlar ushbu murakkablikni yanada teranlashtiradi.

Roman strukturasi ko‘pqirrali, polifonik obrazlar tizimidan qurilgan. Har bir qahramon yoki obyekt voqelikni o‘z tafakkuridan kelib chiqqan holda hikoya qiladi. Bu esa real tarixiy vaqt va makonni emas, balki **diskursiv xronotopni** yaratadi. Har bir obraz tarixiy haqiqatni emas, balki **o‘z ehtimoliy haqiqatini** so‘zlaydi. Bu holat biofiktiv yondashuvga xos bo‘lib, tarixni bitta nuqtayi nazardan emas, balki **psixologik va madaniy anglash** hosilasidir. “Mening otim Qirmizi” romanidagi ayrim syujet qirilmalarida jonlantirish, ya’ni personifikatsiya, oddiy poetik vosita sifatida emas, balki butun syujetning konstruktiv asosiga aylanadi. Garchi jonsiz obyektning tilga kirishi mumtoz adabiyotda badiiy san’at (istiora, metafora yoki personifikatsiya) ko‘rinishida uchrasa-da, Pamuk matnida bu san’atlar o‘z mazmunini o‘zgartirib, badiiy reallikning tarkibiy qismiga aylanadi. Misol uchun, rasm, bo‘yoq, naqsh, o‘lim yoki hatto “Qora” obrazining hikoya qilishi bu stilistik bezak emas, balki butun matnning fantastik o‘ziga xosligini ta’minlovchi ontologik konsepsiyadir. Quyidagi iqtibos bunga misol bo‘la oladi: “Ben bir resmim, ama sizin gibi düşünür, sizin gibi hissedirim”⁶. Bu jumla personifikatsiya emas, balki butun fantastic-metafizik tuzilmaning yadrosidir. Bu holatda jonlantirish uslubi oddiy tasviriy vosita sifatida emas, balki muallifning badiiy haqiqat modeli sifatida qaraladi. Rasm gapiradi, chunki badiiy matn realistik emas, u fantastik tamoyillarga monand shakllantirilgan. Klassik personifikatsiya tasviriy vosita sifatida jonli mavjudotga taqliddan iborat. Fantastik struktura esa matn ichida muayyan estetik qonuniyat sifatida mavjud bo‘ladi, ya’ni ma’lum obraz o‘z realligini yaratadi. Boshqacha aytganda, jonlantirish orqali "gapirayotgan rasm" tasviriy vosita bo‘lsa, gapirayotgan rasmning voqeani anglashda markaziy pozitsiyaga ega bo‘lishi fantastik konstruksiyadir.

“Mening otim Qirmizi”da uchraydigan syujet detallarini faqat poetik vositalar deb talqin qilish noto‘g‘ri. Ular romanning estetik paradigmasini tashkil etadi, bu esa biofiktiv-fantastik asarning eng muhim xususiyatlaridan biridir.

⁶ Pamuk O. Benim Adım Kırmızı. İletişim Yayınları, 1998. – S.187.





Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Attebery B. *Stories about stories: Fantasy and the remaking of myth*. Oxford University Press, 2014.
2. Groot J. *The historical novel*. Routledge, 2010.
3. Heilmann A., & Llewellyn M. *Metafiction and metahistory in contemporary women's writing: Remembering the past*. Palgrave Macmillan, 2004.
4. Lee H. *Biography: A very short introduction*. Oxford University Press, 2014.
5. Pamuk O. *Benim Adım Kırmızı*. İletişim Yayınları, 1998.
6. Obidjonova M. Genesis of flash fiction genre in the world literature //International journal on integrated education. – 2019.
7. Saporboyevna R. S. DRABBL JANRI: QISQALIKDA MO ‘JIZA //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2025. – T. 3. – №. 35. – C. 134-142.
8. Kosimova A. DRABBLLAR: TUZILISHI VA TARAQQIYOTI //Иновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 81-85.
9. Obidjonova M. GENRE FEATURES OF SCIENCE FICTION, FANTASY, AND “FANTASTIKA” IN SOME SHORT STORIES OF RAY BRADBURY AND HOJIAKBAR SHAYKHOV //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 3. – С. 110-115.
10. Teshaboyeva Z. et al. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Shuhrat Sirojiddinov Uzoq Jo‘raqulov Nozliya Normurodova.

